

TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY OF EDUCATION



Kirish imtihoni

Ta'lim tilidan bilim darajasini baholash (O'zbek tili)

Imtihon davomiyligi: 1.20 soat (80 minut)

Ko'rsatmalar:

- Test 10 ta savoldan iborat va har bir to'g'ri javob uchun 5 ball taqdim etiladi (umumiyligi 50 ball).
- Barcha savollarga javob bering.
- Barcha javoblar imtihon uchun tarqatilgan bukletlarga yozilishi shart.
- Javoblarni yozishda faqat qora yoki ko'k ruchkadan foydalanishga ruhsat etiladi.
- Qalam yoki boshqa o'chirilishi mumkin bo'lgan ruchkalardan foylanish mumkin emas.

1-VARIANT

1. Mastura yoshligidan yig'loqi edi. Ajratib ko'rsatilgan so'zda qanday tovush o'zgarishlari mavjud ekanligini toping.

- A) tovush orttirilishi
- B) tovush tushishi
- C) tovush almashinishi va tovush orttirilishi
- D) tovush tushishi va tovush almashinishi

2. Tilshunoslikning qaysi bo'limida imlo qoidalari o'r ganiladi?

- A) Grafika
- B) Orfoepiya
- C) Orfografiya
- D) Morfologiya

3. Berilgan so'zlarning qaysi biri tarkibida faqat d jarangli undoshining jarangiz jufti qo'llanganligini aniqlang.

- A) dard, dod, dada
- B) tut, tatar, tot
- C) tutun, bobo, to'n
- D) paxta, terak, tekis

4. Berilgan gaplarning qaysi birida Metonimiya asosida ma'no ko'chishi hodisasi uchraydi?

- A) G'or og'zida o'tirgan nuroni bir qimirlab qo'ydi.
- B) Shirinlik kesayotganimda qo'llimni kesib oldim.
- C) Shirinso'z, uddaburon bolalarni kim yaxshi ko'rmaydi deysiz.
- D) Doston oyog'ingni yechib, mehmonxonaga kirib tur.

5. Hokim so'zi otlashgan so'z bilan ifodalangan so'z birikmasi keltirilgan javobni belgilang.

- A) bolakayning dod-voyi
- B) qizil gul
- C) hammadan yaxshi
- D) Ozodada ko'p

6. Berilgan gaplarning qaysi birining kesimi ravish so‘z turkumi bilan ifodalangan?

- A) Uning bajargan topshiriqlari shu.
- B) Ona yurtim tabiatni nihoyatda chiroyli.
- C) Azamatga yuklatilgan vazifalar Odilnikidan ko‘p.
- D) Mehmonlar birin-ketin kelishar edi.

7. Faqat yasama so‘zlar keltirilgan qatorni belgilang.

- A) guvulla, qora
- B) kimdir, chayqa
- C) bola, lola
- D) guldon, ishchi,

8. Bog‘lovchisiz qo‘shma berilgan javobni belgilang.

- A) O‘quvchilar tadbiriga kech tashrif buyurishdi, shuning uchun orqa qatordan joy egallashdi.
- B) Bugun tongdan yomg‘ir yog‘di, natijada sel xavfi ortdi.
- C) Mahliyo uylarni yig‘ishtirdi, hovlilarni supurdi.
- D) “Biz tanlovda birinchi o‘rinni egalladik”, -dedi ustozimiz.

9. Imloviy xato yozilgan so‘z berilgan javobni toping.

- A) saodat, fikr
- B) taajjub, mas’ul
- C) uzur, xayot
- D) xayol, halol

10. Berilgan so‘zlarning qaysi birida tutuq belgisi orqali so‘z ma’nosi farqlanadi?

- A) sa‘va-sava
- B) is’hoq-ishoq
- C) ma’no-mano
- D) ma’rifat-marifat